ANDIJON VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

# ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2021- YIL YANVAR-FEVRAL***

Sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: 74-228-30-42

# Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-fevral)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-fevral oyida viloyat korxonalari tomonidan 3424,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 70,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (96,6 %)ni tashkil etdi.







***B**–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 34,5 % ga, hamda suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda - 33,8 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 183,0 % ga va elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning - 1,0 % ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,7 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi**
*yil boshidan, % da*







## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3309,3 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,6 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*







## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 13316 dona engil avtomobil ishlab chiqarilib (2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 66,5 % ga kamaygan), 7 950,7 tonna kalava ip (7,4 %) , 2647,0 ming. litr 80% dan kam bo’lmagan etil spirti(24,3%) va yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi. 23748,0 tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (8,0 %),33,4 tonna Uzum vinosi (50,4 %), 20,7 tonna Temir yoki po’lat simdan matolar, panjaralar, to’rlar va to’siqlar (19,8%) kamayish kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

| Engil avtomobillar | Yumshoq bug‘doy va spelta uni | Aroq |
|---|---|---|










| O‘simlik yog‘I (tozalangan) | Uzum vinosi | Paxtadan yigirilgan |
|---|---|---|










| 80% dan kam | Alyuminiydan elektr | Temir yoki po’lat |
|---|---|---|

**bo'lmagan etil spirti**




**izolyatsiyasiz o'ralgan sim**




**simdan matolar, panjaralar, to'rlar**




**Neft**




**Paxta chigiti**




**Paxta tolasi**




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yengil avtomobillar,** dona | 39 714 | 13 316 | -26 398 |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** t. | 8581,9 | 7950,7 | -631,2 |
| **Aroq,** ming litr. | 119,2 | 31,6 | -87,6 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** ming t. | 25807,0 | 23 748,0 | -2059,0 |
| **Paxta tolasi,** ming t. | 12189,7 | 6894,0 | -5295,7 |
| **O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.** | 1126,0 | 1541,0 | 415 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar - 66,5 % ga kamaydi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2021- yilning yanvar-fevral oyida 6127 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 53,8 %), 3241 dona “Nexia T-250” (23,9 %), 2913 dona “Lacetti-Gentra” (30,9 %), 1035 dona “Spark” (19,4 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.

### Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati

*2021- yilning yanvar-fevral oyida, dona*



## Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil Yanvar-fevral | 2021- yil Yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Etil spirti,** *t.* | 2130,0 | 2647,0 | 517,0 |
| **Uzum vinosi,** *ming l.* | 67,4 | 33,4 | -34,0 |
| **Paxta chigiti ,** *tonna.* | 20 732,1 | 14 670,9 | -6062,1 |
| **Paxta linti,** *tonna.* | 1576,0 | 931,0 | -645,0 |
| **Kalish ,** *ming dona.* | 630,0 | 685,0 | 55,0 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (2,5 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oyida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,0 % ga o’sganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**
*yil boshidan, % da*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil Yanvar-fevral | 2021- yil Yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 0,6 | 0,3 | -0,3 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 9,0 | 10,0 | 1,0 |
| Elektr energiyasini uzatish bo’yicha xizmatlar, mlrd so’m. | 63,3 | 67,5 | 4,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,6 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**

*yil boshidan, % da*




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil Yanvar-fevral | 2021- yil Yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar,** *mlrd.so'm* | 7,9 | 8,0 | 0,1 |
| **Oqava suvlarni shlami,** *mlrd.so'm* | 1,2 | 1,2 | 0,0 |
| **To'qimachilik chiqindilari,** *t* | 3,4 | 4,9 | 1,5 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilari bo'yicha xizmatlar 43,8 % ga shuningdek, tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 0,9 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2175,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020-yilning mos davriga nisbatan 51,5 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 63,5 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2020- yil yanvar-fevral oyida 0,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida to‘g‘ri kelib, 59,5 % ni, shuningdek, Andijon shahariga 9,4 % ni, Xo’jaobod tumani 5,7 % ni, Andijon tumanida 2,3 % ni hamda Oltinko’l tumani 2,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat (51,5 %) ga kamaygan. Shunga qaramasdan yuqori darajada o’sish ko‘rsatkichi Izboskan (236,4 %), Paxtaobod (133,1 %), Xo’jaobod (120,8 %), Ulug’nor (104,0 %), Bo’ston (100,0 %), Qo’rg’ontepa (108,3 %), tumanlarida hamda Andijon shahrida (103,1 %) qayd etildi.

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-fevral oyida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 816,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 23,8 % ni tashkil etdi.

# Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

*2021- yilning yanvar-fevral oyida*

| Hudud | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 2175,1 | 100,0 | 48,5 |
| Andijon shahar | 205,1 | 9,4 | 100,0 |
| Xonobod shahar | 26,6 | 1,2 | 107,6 |
| Andijon | 50,5 | 2,3 | 60,9 |
| Asaka | 1293,1 | 59,5 | 35, 7 |
| Baliqchi | 32,6 | 1,5 | 98,1 |
| Buloqboshi | 35,1 | 1,6 | 94,9 |
| Bo'ston | 26,7 | 1,2 | 100,0 |
| Jalaquduq | 37,4 | 1,7 | 98,4 |
| Izboskan | 73,4 | 3,4 | 236,4 |
| Ulug'nor | 16,9 | 0,8 | 104,0 |
| Marhamat | 36,6 | 1,7 | 99,9 |
| Oltinko'l | 64, 11 | 2,9 | 86,1 |
| Paxtaobod | 50,7 | 2,3 | 133,1 |
| Xo'jaobod | 123,3 | 5,7 | 120,8 |
| Shahrixon | 56,1 | 2,6 | 75,9 |
| Qo'rg'ontepa | 6192,1 46,9 | 5,2 2,2 | 109,1 99,2 |

# Andijon viloyat hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yilning yanvar-fevral oyida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 3424,8 | 100,0 | 70,5 |
| Andijon shahar | 663,0 | 19,4 | 70,2 |
| Xonobod shahar | 142,5 | 4,2 | 69,7 |
| Andijon | 68,5 | 2,0 | 45,3 |
| Asaka | 1358,6 | 39,7 | 37,3 |
| Baliqchi | 177,5 | 5,2 | 122,2 |
| Buloqboshi | 37,3 | 1,1 | 102,6 |
| Bo’ston | 56,6 | 1,6 | 96,9 |
| Jalaquduq | 223,7 | 6,5 | 136,3 |
| Izboskan | 100,6 | 2,9 | 128,9 |
| Ulug’nor | 40,4 | 1,2 | 109,1 |
| Marhamat | 66,7 | 1,9 | 96,2 |
| Oltinko’l | 67,5 | 2,0 | 66,1 |
| Paxtaobod | 74,9 | 2,2 | 129,2 |
| Xo’jaobod | 127,4 | 3,7 | 102,9 |
| Shahrixon | 91,8 | 2,7 | 82,2 |
| Qo’rg’ontepa | 127,8 | 3,7 | 116,6 |

**<u>Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati</u>** *% da*




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Qo'rg'ontepa (2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 116,6 %), Jalaquduq (136,3 %), Izboskan (128,9 %), Paxtaobod (129,2 %) va Baliqchi (122,2 %) , Buloqboshi (102,6%) ,Ulug'nor (109,1 %), tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

**Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Asaka tumanida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 39,7% ni) hamda Andijon shahri (19,4 %), Jalaquduq (6,5 %), Andijon (2,0 %), Qo’rg’ontepa (3,7 %) va Xo’jaobod (3,7 %) shahar va tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Buloqboshi (1,1 %), Bo’ston (1,6 %) hamda Ulug’nor (1,2 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (4127,0 ming so‘m), Xonobod shahar (3330,7 ming so‘m) va Andijon shahrida (1487,1 ming so‘m) tuman va shaharlarda o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1084,5 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 688,8 ming so‘m bo’lgan holda, Asaka tumanida – 3928,0 ming so‘mni, Xo’jaobod tumanida – 1114,8 ming so‘mni, Andijon shahrida – 460,1 ming

so‘mni, Xonobod shahrida 620,9 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-fevral oyida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Andijon viloyati | 1084,5 | 688,8 |
| Andijon shahar | 1487,1 | 460,1 |
| Xonobod shahar | 3330,7 | 620,9 |
| Andijon | 259,2 | 191,0 |
| Asaka | 4127,0 | 3928,0 |
| Baliqchi | 882,0 | 162,2 |
| Buloqboshi | 260,2 | 245,3 |
| Bo’ston | 782,6 | 369,5 |
| Jalaquduq | 1200,1 | 200,5 |
| Izboskan | 421,2 | 307,4 |
| Ulug’nor | 674,1 | 281,3 |
| Marhamat | 384,1 | 210,8 |
| Oltinko’l | 378,2 | 359,1 |
| Paxtaobod | 386,9 | 262,0 |
| Xo’jaobod | 1151,8 | 1114,8 |

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|

| | 305,3 | 186,5 |
|---|---|---|
| | Shahrixon | |

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 590,1 | 216,3 |
| Qo’rg’ontepa | |

## Ishlab ... shlab kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-fevral oyida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 385,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 11,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Shahrixon (71,1 %), Jalaquduq (25,9 %), Izboskan (43,4 %), hamda Andijon (81,4 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Asaka tumani (3,9 %), Xonobod shahar (19,2 %) va Andijon shaharida (25,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining

kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**
*(2021- yil 1- mart holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 8718 dona sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 3165 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 36,3 % i) Andijon shahriga, 928 tasi (10,6 %) Asaka tumaniga, 693 tasi (7,9 %) Andijon tumaniga, 634 tasi (7,3 %) Shahrixon tumaniga, 466 tasi (5,3 %) Xo’jaobod tumaniga, 414 tasi (4,7 %) Oltinko’l tumanlariga to‘gri kelmoqda.




2021- yilning fevral oyida viloyatda 278 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 70 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 24,1 %) Andijon shahrida, 25 tasi (9,0 %) Asaka tumanida, 31 tasi ( 11,2 %) Shahrixon tumanida,18

tasi (6,5 %) Xo'jaobod tumanida, 24 tasi (8,6 %) Andijon tumanida tashkil etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari**
*2021- yil 1- mart holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari. joylashgan hududlar 8 taligida Asaka ( 928 ta ), Andijon ( 693 ta), Shahrixon ( 634 ta), Xo'jaobod ( 466 ta ), Oltinko'l ( 414 ta ), Qo'rg'ontepa ( 353 ta) va Izboskan tumanlarida ( 302 ta ) hamda Andijon shaharida ( 3 165 ta) qayd etildi







2021- yilning 1- mart holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (297 ta), Baliqchi (290 ta), Buloqboshi (266 ta), Marhamat (242 ta), Paxtaobod (227 ta), Bo'ston (192 ta) va Ulug'nor tumanlarida (95 ta) hamda Xonobod shahrida (154 ta) faoliyat yurgizayotgan korxonalar qayd etildi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**
*Tel.: (74) 228-30-42*